

# Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)


## Doimiy aholi soni.

Namangan viloyati doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 2810,9 ming kishini tashkil etib, 2019 yil boshidan 58,0 ming kishiga yoki 2,1 % ga o'sdi. Jumladan, shahar aholisi soni 1815,4 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 64,6 %), qishloq aholisi soni 995,5 ming kishini (35,4 %) tashkil etdi.


### E'tibor bering: 2019-yil yanvar-dekabr

- Aholi soni **58,0 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **72,0 ming nafarni** tashkil etdi.
- **12,5 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **27,0 mingta nikoh** va **2,4 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

## Namangan viloyati aholisining umumiy o'sishi (2019-yil yanvar-dekabr oylarida)




### Namangan viloyati bo'yicha aholi zichligi (2020-yil 1-yanvar holatiga, 1 kv.km.ga kishi)



Aholi zichligi bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyati bo'yicha 1 kv.kmga 377,6 kishi, aholining eng zich joylashuvi Namangan shahri (1 kv.kmga 4174,7 kishi), Namangan (879,5 kishi), To'raqo'rg'on (826,0 kishi) tumanlarga to'g'ri kelgan bo'lsa, aksincha holat Pop tumanida (75,3 kishi) va Mingbuloq tumanida (169,7 kishi) to'g'ri kelmoqda.

### Namangan viloyati doimiy aholisi soni (2020-yil 1-yanvar holatiga ming kishi)



## Demografik holat

### Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

**Tug'ilish.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 72,0 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti 25,9 promilleni tashkil etdi, hamda 2018-yilning mos davriga nisbatan 1,5 promillega oshganligi (2018-yilning yanvar-dekabr oylarida 24,4 promille bo'lgan) kuzatildi.


**O'g'il bolalar:**  
36,8 ming nafar



**Qiz bolalar:**  
35,2 ming nafar



### Tumanlar (shahar) kesimida tug'ilganlar soni va koeffitsienti (2019-yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)



## Demografik holat

**Vafot etganlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 12,5 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,0 promillega teng (2018 yilning yanvar-dekabr oylarida 4,5 promille bo'lgan).


**Erkaklar:**  
6,7  
ming kishi



**Ayollar:**  
5,8  
ming kishi



### Tumanlar (shahar) kesimida vafot etganlar soni va koeffitsienti (2019-yil yanvar-dekabr, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 57,5 %i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 10,0 %i - o'simtalardan, 6,4 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,2 %i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 4,8 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,4 %i - yuqumli va parazitar kasalliklaridan hamda 13,7 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 693 nafarni tashkil etib, ularning 32,9 %i - perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 32,5 %i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 18,0 %i - tug'ma anomaliyalardan, 3,9 %i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 6,8 %i - yuqumli va parazitar kasalliklardan va 5,9 %i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.

### Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (2019-yil yanvar-dekabr holatiga, jami vafot etganlarga nisbatan, %)




## Demografik holat

**Nikoh.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 27,0 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 9,7 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Uchqo'rg'on tumani (10,9 %) Mingbuloq (8,6 %), Pop (5,4 %) va Uychi tumani (3,4%) to'g'ri kelmoqda.

**Tumanlar (shahar) kesimida nikoh tuzganlar soni va koeffitsiyenti**  
(2019-yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




## Demografik holat

**Nikohdan ajralishlar.** 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 2,4 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti 0,9 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar sonida 2018-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mingbuloq (14,9%), Namangan (14,6%), Uchqo'rg'on va Chust (6,0 %) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

### Tumanlar (shahar) kesimida nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti (2019-yil yanvar-dekabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)





**Migratsiya.** 2019-yil yanvar-dekabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,0 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 6,4 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 1,4 ming kishi bo'lib, 2018-yilning mos davrida minus 0,9 ming kishi bo'lgan.

### Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2018-yil yanvar-dekabr	2019-yil yanvar-dekabr
<b>Ko'chib kelganlar</b>	4,6	5,0
<b>Ko'chib ketganlar</b>	5,5	6,4
<b>Migratsiya saldosi</b>	-0,9	-1,4






## Demografik holat

### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib kelganlar soni




### Tumanlar (shahar) kesimida ko'chib ketganlar soni



**Namangan shahridagi demografik holat.** Namangan viloyatining markazi Namangan shahrining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-yanvar holatiga 626,2 ming kishini tashkil etib, 2018-yilga nisbatan 14,0 ming kishiga yoki 2,3 %ga o'sgan.

### Namangan shahri aholisi tabiiy harakati (1000 aholiga nisbatan, promille)



2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 17,7 ming bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib mos ravishda tug'ilish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 28,6 promilleni tashkil etdi va 2018-yilga nisbatan 1,8 ga (2018-yilning mos davrida 26,8 promille bo'lgan) o'sdi.

2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 3059 ta o'lim qayd etilgan. O'lim koeffitsienti 4,9 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,0 promillega teng (2018-yilning mos davrida 4,9 promille bo'lgan).

FHDYO organlarida 2019-yilning yanvar-dekabr oylarida 5872 ta nikoh va 490 ta nikohdan ajralishlar qayd etildi. 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsienti 9,5 promilleni tashkil qilib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,0 promillega teng bo'ldi (2018-yilning mos davrida 9,5 promille bo'lgan).

Nikohdan ajralish koeffitsienti 1000 aholiga nisbatan 0,8 promilleni tashkil etib, 2018-yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega (2018-yilning mos davrida 0,9 promille bo'lgan) kamaydi.